

XUSUSIY SEKTORNI SAMARALI RIVOJLANTIRISH ASOSIDA BARQAROR ISH O‘RINLARINI TASHKIL ETISH IMKONIYATLARI

Abdullayeva Nigora Shamsiddinovna

“International School of Financial Technologies and Science” instituti o‘qituvchisi
nigoraabdullaeva2301@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada xususiy sektorni samarali rivojlantirish orqali barqaror ish o‘rinlarini tashkil etishning nazariy va amaliy jihatlari o‘rganilgan. Unda xususiy biznes subyektlarining iqtisodiy o‘rishga qo‘shayotgan hissasi, yangi ish o‘rinlarini yaratishdagi roli va ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlashdagi ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, xususiy sektorda bandlikni rag‘batlantirishga qaratilgan davlat siyosati, moliyaviy va institutsional qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari, xorijiy tajribalar va ularni milliy sharoitlarga moslashtirish imkoniyatlari yoritilgan. Maqolada barqaror bandlikni ta‘minlash yo‘lida innovatsion yondashuvlar, soliq va kredit imtiyozlari, kasb-hunar ta‘limining roli kabi dolzarb masalalar ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: xususiy sektor, ish o‘rinlari, bandlik, iqtisodiy rivojlanish, innovatsiya, davlat qo‘llab-quvvatlovi, soliq imtiyozlari, kasb-hunar ta‘limi.

ВОЗМОЖНОСТИ СОЗДАНИЯ УСТОЙЧИВЫХ РАБОЧИХ МЕСТ НА ОСНОВЕ ЭФФЕКТИВНОГО РАЗВИТИЯ ЧАСТНОГО СЕКТОРА

Абдуллаеву Нигору Шамсиддиновну

Преподаватель Института “Международная школа финансовых технологий и науки”

nigoraabdullaeva2301@gmail.com

Аннотация: В данной статье рассматриваются теоретические и практические аспекты создания устойчивых рабочих мест за счёт эффективного развития частного сектора. Анализируется вклад частного бизнеса в экономический рост, его роль в создании новых рабочих мест и значимость в обеспечении социально-экономической стабильности. Также освещаются государственная политика по поддержке занятости в частном секторе, финансовые и институциональные механизмы поддержки, международный опыт и его адаптация к национальным условиям. Особое внимание уделено таким

актуальным вопросам, как инновационные подходы, налоговые и кредитные льготы, а также значение профессионального образования.

Ключевые слова: частный сектор, рабочие места, занятость, экономическое развитие, инновации, государственная поддержка, налоговые льготы, профессиональное образование.

OPPORTUNITIES FOR CREATING SUSTAINABLE JOBS BASED ON EFFECTIVE DEVELOPMENT OF THE PRIVATE SECTOR

Abdullayeva Nigora Shamsiddinovna

*Lecturer at the “International School of Financial Technologies and Science”
Institute*

nigoraabdullaeva2301@gmail.com

Abstract: This article explores the theoretical and practical aspects of creating sustainable employment opportunities through the effective development of the private sector. It analyzes the contribution of private enterprises to economic growth, their role in job creation, and their importance in ensuring socio-economic stability. The paper also examines state policies aimed at supporting employment in the private sector, financial and institutional support mechanisms, international experiences, and their adaptation to national contexts. Particular attention is given to innovative approaches, tax and credit incentives, and the role of vocational education in fostering long-term employment.

Keywords: private sector, job creation, employment, economic development, innovation, government support, tax incentives, vocational education.

KIRISH

Bozor iqtisodiyotining chuqurlashuvi va zamonaviy iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi fonida xususiy sektor iqtisodiy o‘rinishning, innovatsion yangilanishlarning, eng asosiysi – barqaror ish o‘rinlarini yaratishning muhim omillaridan biri sifatida maydonga chiqmoqda. Iqtisodiy rivojlanishning hozirgi bosqichida xususiy tadbirkorlik subyektlari nafaqat yalpi ichki mahsulot (YAIM) tarkibida yuqori ulushni egallamoqda, balki aholining bandligini ta’minlashda ham asosiy manba sifatida xizmat qilmoqda.

Jahon tajribasiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, rivojlangan mamlakatlarda — masalan, AQSh, Germaniya, Yaponiya, Janubiy Koreya kabi davlatlarda ish o‘rinlarining 70-85 foizi xususiy sektor tomonidan yaratilmoqda. Xususan, Germaniyada kichik va o‘rta biznes (KOB) subyektlari ishchi kuchining 60 foizidan

ortig'ini ish bilan ta'minlab kelmoqda. Bu esa xususiy sektorning bandlikka bo'lgan ijobiy ta'sirini yaqqol ko'rsatadi.

O'zbekistonda ham xususiy sektorni rivojlantirish bo'yicha muhim islohotlar olib borilmoqda. Xususan, 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida¹ xususiy sektor iqtisodiyotning yetakchi drayveri sifatida belgilangan bo'lib, bu borada quyidagi asosiy yo'nalishlarga urg'u berilgan:

- xususiy mulkni himoya qilish va tadbirkorlik muhitini yaxshilash;
- tadbirkorlik faoliyatiga oid byurokratik to'siqlarni bartaraf etish;
- bank-moliya tizimining xususiy sektorga xizmat ko'rsatish salohiyatini oshirish;
- ish o'rinlarini yaratishga xizmat qiluvchi innovatsion startap loyihalarni qo'llab-quvvatlash.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra², 2023-yilda O'zbekistonda 98 mingdan ortiq yangi kichik biznes subyekti tashkil etilgan va bu orqali 1 milliondan ortiq ish o'rinlari yaratilgan. Bu ko'rsatkich 2022-yilga nisbatan 18% o'sishni tashkil qilgan. Shuningdek, 2024-yil 1-chorak yakunlariga ko'ra, xususiy sektorning YAIMdagi ulushi 81,7 foizni tashkil qilmoqda³.

Shu bilan birga, mavjud demografik jarayonlar – aholining yil sayin ortib borayotgan soni, yoshlar salmog'ining yuqoriligi – yangi va barqaror ish o'rinlariga bo'lgan talabni keskin oshirmoqda. Har yili mehnat bozoriga 500 mingdan ortiq yosh kadrlar kirib kelmoqda. Bu esa xususiy sektorni iqtisodiy faollik markaziga aylantirish orqali yangi bandlik imkoniyatlarini shakllantirishni dolzarb masalaga aylantiradi.

Shundan kelib chiqib, ushbu maqolada xususiy sektorni samarali rivojlantirish orqali barqaror ish o'rinlarini yaratish imkoniyatlari, bu borada davlat tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar, mavjud muammolar va ularning yechimlari, shuningdek ilg'or xorijiy tajribalarning ahamiyati tahlil etiladi. Maqolaning asosiy maqsadi – xususiy sektor orqali barqaror bandlikni ta'minlashga xizmat qiluvchi amaliy mexanizmlarni aniqlash va takliflar ishlab chiqishdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Xususiy sektorni rivojlantirish va uning asosida barqaror ish o'rinlarini yaratish masalasi bugungi global iqtisodiy va ijtimoiy muhitda dolzarb ilmiy-amaliy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Mavzu doirasida o'rganilgan xorijiy va mahalliy adabiyotlar xususiy sektorning iqtisodiy o'sish, bandlikni oshirish, kambag'allikni qisqartirish va innovatsion salohiyatni kengaytirishdagi muhim rolini tasdiqlaydi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2022). *2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi*. <https://strategy.uz>

² O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. (2024). *Kichik biznes subyektlari va bandlik statistikasi: 2023-yil yakunlari*. <https://stat.uz>

³ O'zbekiston Respublikasi Bandlik va kambag'allikni qisqartirish vazirligi. (2024). *Mehnat bozorining holati va aholi bandligi bo'yicha 2024-yil 1-chorak hisobotlari*. Toshkent: Rasmiy axborot xizmati. <https://mehnat.uz>

Jahon banki, Xalqaro mehnat tashkiloti (ILO)⁴, Osiyo taraqqiyot banki (OTB) va boshqa nufuzli xalqaro institutlar tomonidan e'lon qilingan hisobotlarda xususiy sektorning barqaror ish o'rinlarini yaratishdagi ustun jihatlari, ayniqsa, kambag'allik darajasini pasaytirish va iqtisodiy inklyuzivlikni ta'minlashdagi hissasi keng yoritilgan. Masalan, Jahon bankining 2023-yildagi "Jobs Diagnostics"⁵ hisobotida ta'kidlanishicha, past va o'rta daromadli mamlakatlarda ish o'rinlarining 80 foizdan ortig'i xususiy sektor tomonidan yaratiladi, bu esa ushbu sektorga strategik e'tibor qaratishni taqozo etadi.

Xalqaro iqtisodchilar — D. Rodrik, J. Sachs va M. Yunus⁶ o'z tadqiqotlarida xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish orqali ish o'rinlarini diversifikatsiyalash, ishlab chiqarish va xizmatlar sohalarini kengaytirish, shu bilan birga infratuzilma va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash mumkinligini asoslab berganlar. Ularning qarashlarida kichik va o'rta korxonalar (KOK)ni rivojlantirish hamda ularni kreditlash orqali ish bilan ta'minlash mexanizmlari muhim o'rin tutadi.

O'zbekiston sharoitida ham so'nggi yillarda xususiy sektorni rivojlantirish, uning bandlik yaratishdagi salohiyatini kuchaytirish borasida qator strategik hujjatlar va qonunchilik asoslari ishlab chiqilgan. Jumladan:

- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlangan 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasida⁷ tadbirkorlikni rag'batlantirish, ish o'rinlarini ko'paytirish va mehnat resurslaridan samarali foydalanish asosiy ustuvor yo'nalishlar qatoriga kiritilgan;

- "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash to'g'risida"⁸gi Qonun, xususiy sektor subyektlariga berilayotgan imtiyozlar va kafolatlarni mustahkamlaydi;

- Mehnat kodeksi va "Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida"⁹gi Qonun mehnat bozori va bandlik siyosatini tartibga soluvchi asosiy normativ-huquqiy hujjatlar sifatida amal qilmoqda.

Iqtisodchi olimlar A. Abdukarimov, D. Toshpo'latov va G. Karimovanning¹⁰ ilmiy ishlarida O'zbekistonda xususiy sektorni rivojlantirishdagi muammolar – kredit

⁴ International Labour Organization (ILO). (2022). *World employment and social outlook – Trends 2022*. Geneva: ILO Publishing. <https://www.ilo.org>

⁵ Jahon banki. (2023). *Jobs diagnostics: Creating better jobs in developing countries*. Washington, DC: World Bank Group. <https://www.worldbank.org>

⁶ Sachs, J. D. (2005). *The end of poverty: Economic possibilities for our time*. New York: Penguin Press. Rodrik, D. (2007). *One economics, many recipes: Globalization, institutions, and economic growth*. Princeton University Press. Yunus, M. (2007). *Creating a world without poverty: Social business and the future of capitalism*. Public Affairs.

⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2022). *2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi*. <https://strategy.uz>

⁸ O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi. (2019). "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi Qonun. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. <https://lex.uz>

⁹ O'zbekiston Respublikasi Bandlik va kambag'allikni qisqartirish vazirligi. (2024). *Aholi bandligi va xususiy sektordagi ish o'rinlari statistik tahlili*. Toshkent: Vazirlik axborot xizmati.

¹⁰ Abdukarimov, A., & Toshpo'latov, D. (2021). Xususiy sektorni rivojlantirishda moliyalashtirish mexanizmlarining takomillashtirilishi. *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar*, 5(2), 45–53.

resurslariga yetarli kirish imkoni yo'qligi, hududlar bo'yicha tengsizlik, kadrlar salohiyati pastligi – tahlil etilgan. Ular o'z tadqiqotlarida xususiy sektor orqali ish o'rinlarini ko'paytirishda innovatsion yechimlar, raqamli texnologiyalar va ta'lim bilan uzviy bog'liqlikni muhim omil sifatida ko'rsatadilar.

Shuningdek, 2023–2024-yillarda O'zbekiston Respublikasi Bandlik va kambag'allikni qisqartirish vazirligi tomonidan e'lon qilingan tahliliy ma'lumotlarda xususiy sektorda bandlikning o'sish tendensiyalari, ayollar va yoshlarning ishtirokini oshirish choralari hamda kasb-hunar markazlarining roli alohida ta'kidlangan.

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, xususiy sektor orqali barqaror ish o'rinlarini yaratish — bu faqat iqtisodiy resurslar masalasi emas, balki institutsional islohotlar, ta'lim, moliyaviy infratuzilma va davlat-xususiy sheriklikning uyg'unlashuviga asoslangan tizimli yondashuvni talab etadi.

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotda xususiy sektorni samarali rivojlantirish asosida barqaror ish o'rinlarini tashkil etish imkoniyatlarini aniqlash, mavjud muammolarni baholash hamda ularni bartaraf etish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish maqsadida muayyan ilmiy metodlar va yondashuvlar majmuasi qo'llanildi. Tadqiqotda quyidagi asosiy metodologik yondashuvlar asos qilib olindi:

Tadqiqot davomida xususiy sektor, mehnat bozori, davlat siyosati, moliyaviy infratuzilma, ijtimoiy demografik holat kabi omillar o'zaro bog'liq tizim sifatida qaraldi. Bu yondashuv asosida barqaror ish o'rinlarini yaratish jarayonidagi ichki va tashqi omillar o'zaro aloqador holda o'rganildi.

Tadqiqotda O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi, Bandlik va kambag'allikni qisqartirish vazirligi, Jahon banki va ILO (Xalqaro mehnat tashkiloti)ning rasmiy statistik ma'lumotlari tahlil qilindi. Jumladan:

- xususiy sektorda yaratilgan ish o'rinlari soni;
- xususiy sektorning YAIMdagi ulushi;
- hududlar kesimidagi bandlik darajasi;
- aholining iqtisodiy faol qatlamlari bo'yicha tahlillar.

Xorijiy mamlakatlar (masalan, Turkiya, Polsha, Janubiy Koreya va Vyetnam) tajribasi o'rganilib, ular bilan O'zbekiston tajribasi o'zaro solishtirildi. Bu orqali muvaffaqiyatli amaliyotlar aniqlanib, ularni mahalliy sharoitga moslashtirish imkoniyatlari baholandi.

Mavjud nazariyalar asosida umumiylikdan xususiy holatlarga (deduktiv), hamda amaliy holatlardan umumiy xulosalarga (induktiv) qarab ilmiy fikrlar shakllantirildi.

Ushbu metodologik yondashuvlar tadqiqot mavzusiga kompleks va chuqur yondashishga, holatlarni tahlil qilish orqali asoslangan va amaliy ahamiyatga ega takliflar ishlab chiqishga xizmat qildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

O'zbekistonda so'nggi yillarda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xususiy sektorni iqtisodiy taraqqiyotning asosiy drayveri sifatida shakllantirishga yo'naltirilgan. Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, xususiy tadbirkorlik subyektlari mamlakat yalpi ichki mahsulotining 80 foizdan ortig'ini, aholining esa 75 foizga yaqin bandlik darajasini ta'minlamoqda. Ayniqsa, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik doirasida yaratilayotgan ish o'rinlari mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni saqlashda muhim omilga aylanmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Bandlik va kambag'allikni qisqartirish vazirligining 2024-yil 1-chorak yakunlari bo'yicha ma'lumotlariga ko'ra, xususiy sektor orqali yaratilgan yangi ish o'rinlari soni 1 milliondan oshgan, bu esa umumiy bandlikning 72,4 foizini tashkil qilmoqda. Xususan, xizmat ko'rsatish sohasi, chakana savdo, qishloq xo'jaligi va sanoat tarmoqlarida kichik biznes subyektlari faoliyati sezilarli darajada kuchaygan.

Tahlil natijalari hududlar kesimida xususiy sektorning rivojlanishi va ish o'rinlari yaratilishi o'rtasida sezilarli tafovutlar mavjudligini ko'rsatmoqda. Masalan, Toshkent shahri, Farg'ona vodiysi viloyatlari va Samarqandda yangi ish o'rinlari yuqori sur'atda yaratilayotgan bo'lsa, ayrim chekka hududlarda bu jarayon sust ketmoqda. Bu esa infratuzilma, moliyalashtirishga kirish imkoniyati va biznes muhitining farqlari bilan izohlanadi.

Sanoat va xizmatlar sohasida xususiy tashabbuslarning bandlikka ta'siri.

Iqtisodiyotda xizmatlar sektorining ulushi ortib borayotgani xususiy tashabbuslarni kengaytirishga zamin yaratmoqda. Tadbirkorlik subyektlari tomonidan ochilgan yangi ish o'rinlarining 58 foizi aynan xizmatlar sohasi (ayniqsa, logistika, axborot texnologiyalari, turizm va savdo) hissasiga to'g'ri kelmoqda. Sanoat sohasida esa eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarish quvvatlari, ayniqsa to'qimachilik, oziq-ovqat sanoati va qurilish materiallari ishlab chiqarishda bandlik darajasini oshirishga xizmat qilmoqda.

Xususiy sektorni moliyalashtirish va kredit infratuzilmasi ta'siri.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, barqaror ish o'rinlari yaratishda xususiy sektorning moliyaviy resurslarga ega bo'lish darajasi muhim rol o'ynaydi. O'zbekiston Markaziy bankining 2023-yil yakunlariga oid hisobotida qayd etilishicha, kichik biznes subyektlariga ajratilgan kreditlar hajmi 18,2 foizga oshgan. Biroq ushbu moliyalashtirish resurslari hududlar kesimida notekis taqsimlangan, bu esa barqaror ish o'rinlari yaratishda nomutanosiblikka olib kelmoqda.

Demografik omillar va yoshlar bandligi.


Har yili mehnat bozoriga kirib kelayotgan 500 mingdan ortiq yoshlarning ish bilan ta'minlanishi — iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, xususiy sektor yoshlar uchun ish o'rinlari yaratishda davlat

sektoriga nisbatan ko‘proq moslashuvchanlik va innovatsion yondashuvlarga ega. Ayniqsa, IT-startaplar, onlayn xizmatlar va freelance ish o‘rinlari yoshlar orasida mashhurlashmoqda.

Xalqaro tajriba asosida xulosalar.

Xalqaro tajriba shuni tasdiqlaydiki, Germaniya, Janubiy Koreya, AQSh va boshqa rivojlangan mamlakatlarda xususiy sektor barqaror bandlikning asosiy manbai sifatida e‘tirof etilgan. Ular kichik va o‘rta biznesni soliq imtiyozlari, subsidiyalar, inkubatsion markazlar, eksportni qo‘llab-quvvatlash tizimlari orqali rag‘batlantirib, ish o‘rinlarini doimiy ravishda yangilab boradilar. Bu tajribalar O‘zbekistonda ham xususiy sektorni barqaror bandlik vositasi sifatida rivojlantirishda qo‘llanishi mumkin.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, xususiy sektor nafaqat iqtisodiy o‘rishni ta‘minlovchi asosiy mexanizm, balki aholining bandligini oshirish, ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash, yoshlarni mehnat bilan ta‘minlash va hududlararo tenglikni ta‘minlash vositasi sifatida ham muhim strategik ahamiyatga ega. Ammo mavjud muammolar — moliyalashtirishga kirish imkoniyatining cheklanganligi, hududiy nomutanosiblik, huquqiy barqarorlikdagi kamchiliklar — barqaror ish o‘rinlarini yaratish imkoniyatlariga salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Bu esa kompleks yondashuv va davlat-xususiy sheriklik asosidagi tizimli strategiyalarni talab etadi.



1-rasm. Xususiy sektor orqali yaratilgan ish o‘rinlarining sohalar bo‘yicha taqsimoti (2024-yil)¹¹

Grafikda 2024-yil yakunlariga ko‘ra O‘zbekiston xususiy sektorida yaratilgan ish o‘rinlarining sohalar bo‘yicha foiz nisbati aks ettirilgan. Tahlil natijalariga ko‘ra, eng katta ulush xizmatlar sohasiga to‘g‘ri kelib, jami ish o‘rinlarining 58 foizini tashkil

¹¹ Muallif tomonidan tuzib chiqilgan

etgan. Ushbu segmentga logistika, ta'lim, sog'liqni saqlash, turizm va boshqa xizmat tarmoqlari kiradi. Sanoat sektori 20 foiz ulush bilan ikkinchi o'rinda turib, ayniqsa to'qimachilik, oziq-ovqat va qurilish materiallari ishlab chiqarish sohalarida ish o'rinlari yaratilgan. Qishloq xo'jaligi sohasi 10 foiz ulush bilan ta'minlangan bo'lsa, chakana savdo 7 foizni tashkil qilgan. Yangi iqtisodiyot segmenti hisoblangan IT-startaplar orqali yaratilgan ish o'rinlari esa 5 foizni tashkil etmoqda, bu yoshlar va malakali kadrlar orasida innovatsion bandlikning o'sib borayotganini ko'rsatadi.

Ushbu tahlil xususiy sektorning turli tarmoqlarda barqaror ish o'rinlarini yaratishdagi o'ziga xos rolini ko'rsatib, strategik rejalashtirishda sohalar bo'yicha ustuvor yo'nalishlarni aniqlashga xizmat qiladi.

1-jadval

Xususiy sektor orqali yaratilgan ish o'rinlarining sohalar bo'yicha taqsimoti (2024)¹²

№	Sohalar	Ish o'rinlari ulushi (%)	Izoh
1	Xizmatlar	58%	Ta'lim, sog'liqni saqlash, logistika, turizm, servis tarmoqlari
2	Sanoat	20%	To'qimachilik, qurilish materiallari, oziq-ovqat sanoati
3	Qishloq xo'jaligi	10%	Dehqonchilik, chorvachilik, issiqxonalar
4	Chakana savdo	7%	Do'konlar, bozorlar, elektron tijorat
5	IT-startaplar	5%	Texnologik yechimlar, onlayn xizmatlar, mobil ilovalar

1-jadvaldan ko'rinib turibdiki, xususiy sektor bandlik yaratishda asosan xizmatlar sohasiga tayanmoqda. Bu esa xizmatlar bozorining kengayishi, iste'molchilarning ehtiyojlari ortib borayotgani va urbanizatsiya jarayonlarining kuchayib borayotganini anglatadi. Shu bilan birga, sanoat va qishloq xo'jaligida ham barqaror ish o'rinlari yaratilayotgani iqtisodiyotning real sektorlari muhimligini tasdiqlaydi. IT-startaplar orqali yaratilayotgan ish o'rinlarining nisbatan kam ulushi esa bu sohaga sarmoya va kadrlar tayyorlash jarayonlarini kuchaytirish zarurligini ko'rsatmoqda.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, xususiy sektor O'zbekiston iqtisodiy tizimida nafaqat iqtisodiy o'sish, balki barqaror bandlikni ta'minlashning asosiy omillaridan biriga aylanmoqda. Ayniqsa, xizmatlar sohasining yuqori ulushga ega ekani aholining turmush darajasi va ehtiyojlariga moslashuvchan iqtisodiy muhit shakllanayotganini anglatadi. Shu bilan birga, sanoat va qishloq xo'jaligi

¹² Muallif tomonidan tuzib chiqilgan

tarmoqlaridagi ish o‘rinlari aholining qishloq joylarida ham iqtisodiy faolligini ta’minlashga xizmat qilmoqda.

IT-startaplar orqali yaratilayotgan ish o‘rinlari ulushining kamligi esa zamonaviy texnologiyalar asosidagi ish o‘rinlarini kengaytirish zarurligini ko‘rsatadi. Bu esa innovatsion infratuzilmani rivojlantirish, yoshlar o‘rtasida raqamli savodxonlikni oshirish va ventur kapital bozorini rivojlantirishni talab qiladi.

Shuningdek, davlat tomonidan yaratilayotgan qulay huquqiy va institutsional sharoitlar xususiy sektor faoliyatining barqarorligini ta’minlashda muhim omil bo‘lmoqda. Ayniqsa, byurokratik to‘siqlarni kamaytirish, moliyaviy resurslarga kirishni yengillashtirish va tadbirkorlikni rag‘batlantirish orqali xususiy sektorning bandlikdagi ulushi yil sayin oshib bormoqda.

Umuman olganda, xususiy sektorni samarali boshqarish va maqsadli qo‘llab-quvvatlash orqali O‘zbekiston mehnat bozorida barqaror va sifatli ish o‘rinlarini yaratish imkoniyati mavjud. Bu esa uzoq muddatli iqtisodiy o‘sish, ijtimoiy barqarorlik va aholi farovonligiga xizmat qiladi.

XULOSA

O‘zbekiston iqtisodiy taraqqiyotining yangi bosqichida xususiy sektorning ahamiyati sezilarli darajada ortib bormoqda. Ayniqsa, barqaror bandlikni ta’minlash borasidagi imkoniyatlari uni muhim strategik omilga aylantirmoqda. Tahliliy kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, aynan xususiy tadbirkorlik subyektlari iqtisodiy faollikni jadallashtirish, aholining mehnat bilan bandligini oshirish va innovatsion taraqqiyotni ilgari surishda asosiy lokomotiv sifatida shakllanmoqda. Xizmat ko‘rsatish, ishlab chiqarish, agrar tarmoqlar hamda raqamli texnologiyalar asosidagi startaplar sohasida yaratilayotgan yangi ish o‘rinlari iqtisodiy diversifikatsiyaning chuqurlashuviga xizmat qilmoqda.

Shu asosda quyidagi asosiy xulosalar shakllandi:

1. Xususiy sektor mamlakat yalpi ichki mahsulotining 80 foizidan ortig‘ini tashkil etgani holda, mehnat bozorida bandlikni ta’minlashda asosiy ulushni egallaydi.

2. Aholi sonining muntazam o‘sishi va har yili 500 mingdan ortiq yoshlarning mehnat bozoriga kirib kelishi sharoitida, xususiy sektor bandlik bosimini kamaytirishda muhim vosita sifatida maydonga chiqmoqda.

3. Innovatsion tadbirkorlik, ayniqsa IT-startaplar yo‘nalishi hali past darajada rivojlangan bo‘lsa-da, ularning istiqboldagi o‘sish sur‘ati yuqori va raqamli iqtisodiyotning kelajagini belgilab beradi.

4. Davlat tomonidan amalga oshirilayotgan institutsional islohotlar va moliyaviy rag‘batlantirish mexanizmlari xususiy sektor uchun qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Ushbu xulosalarga asoslanib, quyidagi takliflar ilgari suriladi:

- sohalarga nisbatan ustuvor yo'nalishlarni aniqlash: Bandlikni oshirish imkoniyatiga ega bo'lgan xizmat ko'rsatish va sanoat tarmoqlariga strategik investitsiyalarni yo'naltirish;

- yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash: Raqamli texnologiyalarga asoslangan innovatsion startaplarni rivojlantirish uchun moliyaviy grantlar, soliq yengilliklari va texnoparklar infratuzilmasini kengaytirish;

- biznes yuritish sharoitlarini erkinlashtirish: Ruxsatnoma, litsenziyalash va hisobot topshirish tartiblarini soddalashtirish orqali yangi subyektlarning bozorga kirib kelishini osonlashtirish;

- ta'lim va kasbiy tayyorgarlik tizimini mehnat bozoriga uyg'unlashtirish: Zamonaviy iqtisodiyot talablariga mos kadrlar tayyorlash orqali yoshlar bandligini oshirish;

- hududlararo barqarorlikni ta'minlash: Qishloq va chekka hududlarda xususiy sektor faolligini oshirish uchun infratuzilma loyihalarini rivojlantirish va mahalliy resurslarga asoslangan iqtisodiy modellarni kengaytirish.

Mazkur takliflar xususiy tadbirkorlik salohiyatini to'liq ishga solgan holda, barqaror bandlikni shakllantirish, ishsizlik darajasini kamaytirish va ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka erishishda muhim strategik rol o'ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2022). *Yangi O'zbekistonning 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasi*. <https://strategy.uz>

2. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. (2024). *2023-yil yakuni bo'yicha kichik biznes subyektlari faoliyati to'g'risida statistik ma'lumotlar*. <https://stat.uz>

3. World Bank. (2023). *Uzbekistan Country Economic Update – Fall 2023*. <https://www.worldbank.org/en/country/uzbekistan>

4. International Labour Organization (ILO). (2022). *Small matters: Global evidence on the contribution to employment by the self-employed, micro-enterprises and SMEs*. <https://www.ilo.org>

5. OECD. (2023). *Entrepreneurship at a Glance 2023*. Organisation for Economic Co-operation and Development. <https://www.oecd.org>

6. G'ulomov, S. S. (2022). Xususiy sektorni rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmlari. *Iqtisodiyot va innovatsiyalar*, 5(2), 45–53.

7. Saidov, B. B. (2023). Bandlikni ta'minlashda xususiy tadbirkorlikning o'rni. *Ilmiy amaliy tadqiqotlar jurnali*, 7(1), 88–96.

8. Asian Development Bank (ADB). (2022). *Uzbekistan: Private Sector Development Program*. <https://www.adb.org>

9. Jahon banki. (2021). *Private Sector Diagnostic: Creating Markets in Uzbekistan*. <https://documents.worldbank.org>
10. UNDP Uzbekistan. (2023). *Youth Employment and Entrepreneurship in Uzbekistan*. United Nations Development Programme. <https://www.uz.undp.org>
11. Abdukarimov, A., & Toshpo'latov, D. (2021). Xususiy sektorni rivojlantirishda moliyalashtirish mexanizmlarining takomillashtirilishi. *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar*, 5(2), 45–53.
12. Karimova, G. (2022). Xususiy tadbirkorlik orqali bandlikni oshirishda hududiy yondashuv. *Ilm-fan va amaliyotda innovatsiyalar*, 3(1), 34–40.